

MASALA TUSHUNCHASINI ANIQLASHTIRISHGA DOIR TURLICHA YONDASHUVLAR

Djuraeva Dilnoza Shakirjonovna
(Termiz davlat universiteti, algebra va geometriya kafedrası)

Annotatsiya. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda “Masala” mustahkam o‘rin egallab bormoqda. Chunki, asosiy e‘tibor o‘quvchilarda o‘quv faoliyatining asosi bo‘lgan “o‘quv ko‘nikmalari”ni shakllantirishga yo‘naltirilmoqda. Masalalar yechish jarayoni o‘quv faoliyatining muhim ko‘rinishlaridan bo‘lib, o‘quvchilar aynan shu jarayonda nazariy materialni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini chuqur egallashadi, ijodiy faoliyatlari shakllanadi va ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi.

Tayanch so‘zlar: Masala, muammoli yondashuv, nostandart masalalar, ijodiy qobiliyat, muammoli vaziyat.

Jaxon miqyosida ta‘lim sohasida yangiliklar yaratish borasida tadqiqotchi-olimlar bugungi kunda ta‘lim oluvchilarga fanga oid nostandart masalalarni yechish usullarini o‘rgatuvchi, maktab ta‘lim oluvchilariga bunday masalalar to‘g‘risida aniq ma‘lumotlar beruvchi, ta‘lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Respublikamizda 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishida « fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish» vazifalari belgilab berilgan. Bu ta‘lim jarayonini zarur axborotlar bilan ta‘minlash, ularni o‘zlashtirib borishning maqbul yechimlarini topish va joriy qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. “Oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma‘naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish” kabi vazifalar belgilangan.

“Masala” va “muammoli vaziyat” ko‘p jihatdan bir-biriga o‘xshash bo‘ladi. Lekin u bu borada izlanishlar olib borgan ko‘plab tadqiqotchilarning tadqiqotlarida murakkablashtirilmaydi. Masalan, tadqiqotchi L.M.Fridman muammoli vaziyatni boshlang‘ich deb hisoblaydi va masala shu asosda yuzaga keladi, deb tushuntiradi. [2].

Muammoli holat keng metodik hodisa bo‘lib, u o‘ziga topshiriqlarni ham, topshiriqlarni bajarayotgan sub‘ekt – ta‘lim oluvchilarni ham qamrab oladi. Muammoli holatda ishtirok etgan ta‘lim oluvchi faol fikrlaydi, o‘zida mavjud bilim, tajribani mustaqil ishlatadi, yechimga mustaqil yetib keladi. O‘quv muammosi uni anglagan, tushungan ta‘lim oluvchi uchungina muammo sanaladi. O‘quv muammosini sub‘ekt uchun muammoli holatga aylantirish maqsadida uning tarkibida ikki yoki undan ortiq topshiriq keltiriladi. Agar ta‘lim oluvchi muammoni tushunish uchun berilgan topshiriqlarning birortasini tushunmasa (masalan, bir g‘ozning oldinda, ikkitasining keyinda uchayotgan holati), ikkinchi holatga (masalan, bir g‘ozning orqada, ikki g‘ozning oldinda uchayotgan holati) o‘tiladi. O‘quv holatlarining biridan ikkinchisiga o‘tish, qo‘yilgan asosiy muammoni tushunishni ta‘minlaydi. Garchand topshiriqdan topshiriqqa o‘tish ko‘p vaqtni taqozo qilsa-da, ta‘limda nuqsonlar bir qadar kamayadi. Bu muammoli ta‘limning o‘ziga xos samaradorligidir. R.Ibragimovning tadqiqot ishida muammoli masala, topshiriqlar turlari va ulardan foydalanish texnologiyalari o‘z ifodasini topgan [4]. Muallif bunday masala-topshiriqlarning a) muammoli xususiyatga ega savollarga oid masala-topshiriqlar; b) turli usullarda yechish mumkin bo‘lgan masalalar; v) mazmunan bir xil, ammo yechish usullari turlicha bo‘lgan masalalar; g) sharti yetarli bo‘lmagan masalalar; d) ortiqcha ma‘lumotga ega masalalar; ye) butunlay noto‘g‘ri ma‘lumotga ega masalalar; j) turli xil faoliyatni umumlashtirishga mo‘ljallanib yechiladigan topshiriqlar; z) predmetlararo aloqador mazmundagi masalalar turlariga ajratgan [4].

Bizning fikrimizcha muammoli yondashuv orqali beriladigan masalalar, maxsus maqsadli masalaga ehtiyoj borligi va qayd etilgan muammoning inson tomonidan noma‘lum narsalarni topish paytida tizimning ba‘zi bir tarkibiy qismlari sub‘ekt uchun masalaga aylanadi. Muallif fikricha, “inson yechim izlash yo‘lidan boradimi yoki yo‘qmi, baribir, masala mavjud bo‘ladi, chunki sub‘ekt uchun masala tizimining muammoli ekanligini anglash va maqsadli ko‘rsatmaning (yoki sub‘ektiv ehtiyojning) mavjudligi muhimdir, xolos”.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, masala haqidagi tushunchani u yoki, bu ma‘noda qo‘llashda muallif tomonidan “masala” atamasiga qanday mazmun yuklatilganligi,

u qaysi mualliflarning fikrlariga tayanib ish yuritayotganligiga, qanday holatlarga qarama-qarshi fikr bildirayotganligiga ham jiddiy e'tibor qaratish kerak.

Masalaning asosiy belgisi shundan iboratki, unda vaqtincha yechim vositalari yo'q, ya'ni ketma-ketlikda belgilab qo'yilgan jarayonlarni, ma'lum mundarija (umumiy qolipdagi javoblar)ni to'g'ridan-to'g'ri qo'llash imkoniyati bo'lmaydi. Bu esa masalani nisbiy qilib qo'yadi; muammoli savol esa, boryo'g'i, hali uning yechimini bilmaydigan kishi oldiga masala qilib qo'yiladi. Bundan tashqari masala muammoli vaziyatdan farqlanadi. Birinchi holatda savol aniq rivojlantirilgan, ikkinchi holatda esa hali rivojlantirilmagan bo'ladi. Muammoli vaziyat pedagogik masalalarni tuzishda negiz masalasini o'taydi.

Masaladan foydalanishdagi muammo shundaki, fanni o'qitishda u turlicha jihatlardan, nuqtai nazarlardan iborat bo'ladi: bu – ta'lim berish jarayonlarida masalaning xizmat va maqsadlarini aniqlashtirish, masalalarni turlash va tasniflash, mazmun hamda yechish usullarini aniqlash, masalani yechishga o'rgatish usullarini takomillashtirish, nazariy bilimlar va masala o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochish deganidir. "Berilgan savol"ning bu va boshqa jihatlari psixologik-pedagogik, didaktik va metodik adabiyotlarda o'z aksini topgan. Shunday bo'lsada, yuqorida aytib o'tilganlar fikrlarning hammasi ham to'g'ri bo'lmasligini tan olish kerak.

G.A.Ball[1], V.V.Davydov[8], D.B.Elkonin[7] larning ishlarida o'quv faoliyati o'quv masalalari tizimi tarzida bayon qilingan. Masalan, D.B.Elkonin ta'lim jarayonini o'quvchilar oldiga qo'yilgan ta'lim maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan harakatlar majmuasi tarzida ta'riflaydi. Aynan, o'quv masalasini o'quv faoliyatining birligi sifatida qaraydi. Bunday qarash esa didaktikada muammoli yondashuv tushunchasini yaratilishiga olib kelgan. Ushbu (muammoli) yondashuv talablariga ko'ra, yangi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish maxsus loyihalashtirilgan vaziyatlar tizimi asosida amalga oshiriladi. Buning uchun esa, o'quv-biluv masalalari majmuasidan foydalaniladi.

G.D.Buxarova masalaviy yondashuvni o'quvchilarning shunday faoliyati sifatida taqdim qilganki, bu faoliyat turli xil masalalar tizimini qo'llashni va uni yechishni taqazo qiladi. Demak, har bir bosqichda nafaqat ma'lum masalalar tizimini ajratib olish, balki ularni muvaffaqiyatli yecha olishni ham taqazo qiladi.

G.D.Buxarovaning ta'kidlashicha, muammoli yondashuv birinchi navbatda insonda fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, u shu asosda insonda aqliy harakatlarni va amallarni zarur darajasining shakllanganligini ta'minlaydi[9, 48-bet]. Shuningdek, muammoli yondashuvga murojaat qilishning dolzarbligi quyidagilarga tayangan holda asoslashga harakat qilgan: birinchidan, maktabda matematika va tabiiy-ilmiy fanlarni o'qitishga vaqtning keskin kamayib ketganligi; ikkinchidan, fundamental fanlarni o'rganish o'quvchilarda ilmiy tafakkurni, ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga, o'quvchilar tomonidan kelgusida injenerlik va texnika sohasini egallash bo'yicha zarur bilimlar tizimini egallashlariga xizmat qiladi; uchinchidan, masalalarni yechish har doim insonning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ulardagi ijodiy potensialni rivojlantiradi. Hayoti davomida inson xoxlaydimi yo'qmi, turli xil masalalarni: ijtimoiy, kasbiy, ishlab chiqarish mazmunidagi, o'quv, maishiy va boshqa masalalarni yechishga to'g'ri kelishini ko'rsatgan.

U.J.Sodiqovning fikricha masalaviy yondashuvning mohiyati o'quvchilarda ta'lim olishga ijobiy motivatsiyani o'quv masalalarini yechishga o'rgatish usullari, metodlari va metodikasiga o'rgatishni, ularning ijodiy qobiliyatlarini payqashga imkon yaratadi. [3]

Bu borada shuni eslatmoq o'rinliki, nostandart masalalarni tizimlash masalasida ko'plab ilmiy ishlar qilingan, qo'llanmalar yaratilgan. Bu izlanishlarda nostandart masala har xil asoslarda tasniflangan. Masalan, fanlar bo'yicha, talablar bo'yicha, murakkabligi bo'yicha, masalani yechish paytidagi aqliy faoliyat bo'yicha, shartni e'lon qilishdagi rivoj bo'yicha o'qitish jarayonida didaktik asoslar va boshqa belgilar bo'yicha fikrlar ilgari surilgan, ya'ni har xillik yuzaga kelgan.

Juda ko'plab tadqiqotchilarning izlanishlarida belgilangan masalalarni tasniflashda o'ziga xos yondashuv zarurligi ta'kidlanadi. Ta'kidlab o'tmoq o'rinliki, ko'rib chiqilgan variantlarda bitta kamchilik uchraydi: "har xil tasniflangan ruknlar bir-biriga mos kelmaydi, ya'ni "bir-birini yopib qo'yadi", ularni birlashtirish esa nostandart masalalarning yaxlit yig'indisini tashkil etmaydi".

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda "Muammoli yondashuv" mustahkam o'rin egallab bormoqda. Chunki, asosiy e'tibor o'quvchilarda o'quv faoliyatining asosi bo'lgan "o'quv ko'nikmalari"ni shakllantirishga yo'naltirilmogda. Masalalar yechish jarayoni o'quv faoliyatining muhim ko'rinishlaridan bo'lib, o'quvchilar aynan shu jarayonda nazariy materialni amaliyotda

qo'llash ko'nikmalarini chuqur egallashadi, ijodiy faoliyatlari shakllanadi va ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi.

Biz esa ta'lim oluvchilarni kuchli qiziqish va hayajonga solib qo'yadigan masalalarni nostandart sifatida taklif va tavsiya etamiz. Chunki fanlarni o'qitishda yuqorida bayon etilganlarga xos bo'lgan bunday yondashuv bizga, tarkibida nostandart masalalar bo'lgan, ayni paytda, ta'lim oluvchilarda ijodiy faoliyatni faollashtirishga xizmat qiladigan o'quv materiallari ishlab chiqish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.studmed.ru> > ball-ga-teoriya-uchebnyh-zadach-psihologo-ped... Балл Г.А. Теория учебных задач: Психолого-педагогический аспект. разное. pdf; 836.2 КБ; добавлен 12.04.2011. М.: Педагогика, –184 с.
2. Фридман Л.М. Психопедагогика общего образования. –М.: ИПП, 1997. – 286 б.
3. Содиков У.Ж. Математикани ўқитишда масалавий ёндашув орқали ўқувчилар ижодий қобилиятларини ривожлантириш методикаси.: Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дис.Автореф. –Т., 2020. –18 б.
4. Ибрагимов Р. Бошланғич синф таълим олувчилари билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари: Дис. ...пед. фан. док. ...–Т., 2005. –249 б.
5. Абдуллаева Б.С., Джураева Д.Ш., Джуракулова А.Х. Математика ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. Тошкент:“ТУРОН-ИҚБОЛ”, 2020. – 220 б.
6. Эльконин. Д.Б. Избранные психологические труды / Д.Б.Эльконин. М.: Педагогика, 1999.- 560 с
7. Давыдов В. В. Методология и методика психолого-педагогического исследования: учеб. пособие для вузов/ В.В.Давыдов, П.И.Образцов, А.И.Уман.-М.: Логос, 2006.-128 с.
8. Бухарова Г.Д. Основные понятия теории решения задач и теории обучения решению задач// Образование и наук.-2011.-№3 (82).-С.44-58.
9. Djurakulova A. X. Development of creative abilities of younger students in mathematics lessons //Научные горизонты. – 2019. – №. 2. – С. 42-46.
10. Джураева Дильноза Шакиржоновна 2021. Построение системы нестандартных заданий, направленных на развитие логического мышления учащихся. Среднеевропейский научный вестник. 11, (Апрель 2021). DOI: <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.408>.